

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Terminlarning kategorial belgi xususiyatlari

Категориальные характеристики терминов

Categorical character characteristics of terms

Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi

Farg'onan davlat universiteti chet tillari kafedrasini o'qituvchisi

[usmonovashahnoza40@gmail.com.](mailto:usmonovashahnoza40@gmail.com)

Har qanday muayyan maqsadlar uchun mo'ljallangan tilning yadrosini, terminologiya deb atalgan maxsus leksika tashkil qiladi. Terminlar u yoki bu tabiiy tilning lug'aviy qismi sifatida o'r ganib chiqilishi mumkin, ammo ular terminologik tizimda keng ma'noda millat tilining funksional xilma-xilligida aks etadi hamda muayyan maqsadlar uchun mo'ljallangan tilga nisbatan kengroq hisoblanadi. Grammatik jihatdan muayyan maqsadlarga mo'ljallangan til umumiyligi tilga nisbatan imkoniyati cheklangan. U millat tilining bir bo'lagi sifatida qaraladi. Shuningdek, terminologiya va nomenklaturalarga qo'shimcha ravishda nutqning eng tipik turlarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbek terminologiyasining shakllanishini bir qator olimlarimizning izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. Xusan, N.A.Baskakov, N.K.Dmitriev, B.U.Oruzbayeva, R.A.Urekenova, M.Sh.Gasimov, A.S.Orudjaliyevalarning turkiy tillar materiallari asosida terminlarni o'r ganishga bag'ishlangan ishlari shular jumlasidandir. Shuningdek, terminologiya borasida professor U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Olim terminologiya borasidagi qarashlarni umulashtib unga o'z munosabatini bildiradi, terminlarning hosil bo'lishi, tartibga solinishi, terminlarni to'plash, guruhlash borasida o'z qarashlarini bayon etadi. U.Tursunov o'z asarlarida asosan ikki masalaga alohida e'tibor qaratgan. Bulardan birinchisi terminlarning qo'llanilishi bo'lsa, ikkinchisi terminologiyaning boyish manbalaridir.

K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo‘lgan turli me’morlar, loyihachil ar, kashfiyotchil ar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o‘rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o‘ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi.

Professor Renat Doniyorovning “O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” kitobida o‘zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o‘rin olgan. Ushbu tadqiqotni texnik terminologiyani o‘rganishga katta hissa qo‘shti deyish mumkin.

H.Dadaboyevning “XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya” mavzusida yaratilgan tadqiqotida o‘zbek tilidagi, jumladan, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyaning paydo bo‘lishi va tilda qo‘llanish mummolari atroficha o‘rganilgan. Unda ayniqsa, O‘rta Osiyo hududidagi turkiy xalqlar tillaridagi yurt, ulus, baliq (“shahar” ma’nosida), yasaq (“huquq, qonun” ma’nosida), ordu, qazi, og‘riliq, jaza, yug‘rush (“vazir” ma’nosida) kabi yuzlab ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilganligi, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat – ul haqoyiq”, Zamaxshariyning “Muhaddimat al – adab”, Sayfi Saroiyning “Guliston bitturkiy”, Qutbning “Xisrav va Shirin”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” kabi asarlaridan olingan terminlar misollar bilan isbotlab berilgan. Shu bilan birga, terminlarning paydo bo‘lish tarixiga, ularning yasalish qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o‘zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbek tilshunosligida S.F.Akobirov, A.Hojiyev, H.Dadaboyev, O.Usmonov, S.Usmonov, A.Madvaliyevlar terminologiya sohasiga tamal toshini qo‘yanlar. So‘nggi yillarda tilshunoslikda terminologiyaning turli qirralari o‘rganilmoqda. D.Jamoldinova o‘z tadqiqotlarida badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritgan. M.A.Aliyeva milliy gazlama terminlarining ma’no xususiyatlari, grammatick strukturasini o‘rgangan.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

D.I.Xodjayev ingliz, rus va o‘zbek tillari izohli lug‘atlari materiallari misolida tilshunoslik terminlarini leksikografik tahlilga tortgan. I.Yo‘ldoshev o‘zbek kitobatchil ik terminologiyasi, uning shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish, Z.N.Urunova esa o‘zbek tilida defektologiya terminlarini tadqiq qilgan.

O‘zbek tilshunoslida terminlarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlarni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, M.X.Boboyorov sport terminologik tizimining o‘zbek tili ichki imkoniyatlari hamda tashqi omillar asosida rivojlanish jarayonlarini, X.A.Sarimsokov ingliz va o‘zbek tillari sport terminlarining shakllanish xususiyatlari hamda sportga oid frazeologik birliklarning termin sifatida xoslanishini, N.B.Kuldasheva esa fransuz va o‘zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq etgan holda, N.A.Ayaqulov ingliz va o‘zbek tillarida sport terminlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq qilgan.

A.N.Usmonov o‘zbek tilida termin yasovchi faol affikslarni tadqiq etgan holda, N.Qosimov o‘zbek tilidagi texnik terninlarni funksional o‘ziga xosligini o‘rgangan. G‘.M.Ismailov esa o‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishini yoritgan.

Tabiiy fanlar terminologiyasini o‘rganish asosida ham bir qancha ilmiy izlanishlar yuzaga kelgan. Xusan, X.Jamolxonov o‘zbek botanik terminologiyaning shakllanish va rivojlanish tarixini tadqiq qilgan. D.X.Bozorova o‘zbek zoologik terminlarning shakllanish va rivojlanish tarixini o‘rgangan. A.I.Kasimov zamonaviy o‘zbek tilidagi farmaseftik atamalarni, A.Madvaliyev o‘zbek kimyo terminologiyasi va ularni me’yorlashtirish masalalarini, Z.Mirahmedova hozirgi o‘zbek tilining anatomik terminologiyasini, F.X.Qosimova o‘zbek tibbiy terminlari va ularning lingvokulturologik tadqiqini olib borgan.

N.B.Kuldosheva ta’kidlaganidek, “qiyosiy tilshunoslik – tillarning universal xarakterlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan fan, tarixiy tilshunoslik – tillarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, qiyosiy terminologiya esa, tilshunoslik fanida yangi yo‘nalishlardan biri desak, mubolag‘a

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo‘lmaydi”. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida qiyosiy tilshunoslikda terminologiyani mustaqil soha sifatida talqin etish, terminlarning iste’molda qo‘llanilishini, amaliy ahamiyatini, tilga singib keta olishini sinovdan o‘tkazish borasida jiddiy yutuqlarga erishil di. Natijada, har bir sohaning lisoniy vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi, so‘z qo‘llashdagi individualligini ko‘rsatuvchi amaliy-terminologik tahlil asosidagi tadqiqotlar ustuvorligi kuzatila boshladi. Tilshunosligimizda terminologiyani qiyosiy, chog‘ishtirma o‘rganish doirasida ham bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligini ko‘rshimiz mumkin. Bu borada I.Ismoilovning 1966 – yilda nashr ettirgan monografiyası muhim ishlardan biri sanaladi. Muhimi shundaki, mazkur ishda o‘zbek va uyg‘ur tillardagi qavm-qarindoshlik terminlarilarining paydo bo‘lishi va amalda qo‘llanish me’yorlari atroflicha tahlil etilgan. E.M.Yusufaliyevning “Ta’lim va tarbiyaga oid pedagogik terminlarning lingistik tadqiqi (nemis va o‘zbek tillari materiallari asosida) nomli ilmiy ishida nemis va o‘zbek tilidagi pedagogik terminlarni muqoyasa qilinadi. O‘zbek tilshunosligida tasviriy san’at terminlarining turli tillarda berilishi masalasi X.B.Qodirovaning “Atama va izoh (milliy tasviriy va amaliy san’at atamalarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha izohlash masalasi)” nomli monografiyasida yoritilgan. D.Kadirbekova tomonidan ingliz va o‘zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi hamda uning leksikografik xususiyatlarini tadqiq qilganligini e’tirof etish mumkin. D.S.Saidqodirova ingliz tilidagi internet terminlarini o‘zbek tiliga o‘zlashgan muqobillari bilan chog‘ishtirish, ularning tuzilishi va leksik-semantik xususiyatlari o‘rtasidagi mushtaraklik va farqli tomonlarini aniqlash, o‘zbek tiliga ingliz tilidagi internet terminlarining o‘zlashishi tamoyillarini belgilab bergen. O‘zbek va rus tili terminlarini qiyosiy jihatdan Ch.S.Abdullayeva iqtisod terminlari doirasida o‘rgangan.

Terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama-istiloh so‘zlaridan sinonimik uya tarzida foydalаниlib kelinadi. O‘zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin, ba’zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida, *termin* o‘rnida *atama* derivatini qo‘llash faollashdi. Bir qaraganda, baynalmilal

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zlashmaga har jihatdan mos tushgan o‘z so‘zning qo‘llanishi ma’quldek tuyuladi. Lekin *termin* o‘zlashmasining ta’rifi bilan *atama* yasamasi qamrovini qiyoslash har ikki leksemani sinonim tarzda ishlatalishning maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi. O‘z vaqtida A.Hojiyev *termin* so‘zini *atama* yasamasi bilan almashtirishning noto‘g‘ri ekanligi, uning sabab va oqibatlari xususida jiddiy mulohaza yuritgan edi. Shularni hisobga olgan holda, *termin* o‘zlashmasini ilm-fan, texnika sohalari yoki tarmoqlarida qo‘llanuvchi so‘z va so‘z birikmalari, *atama* so‘zini shartli ravishda qo‘yilgan nomlar (nomenklatura, nomenlar), xususan, geografik obyektlar, joy nomlari (toponimlar), arabcha *istiloh* o‘zlashmasini esa tarixiy terminologiya aspektidagi izlanishlar, tarixiy manbalar matnidagi tushunchalarga nisbatan ishlatalish mumkin.

Bu o‘rinda so‘zning leksik tarkibini solishtiruvchi jihatlarni hisobga olish kerak ya’ni uning grammatik ma’nosini va so‘z yasalish imkoniyatlari. Ushbu turdagi tadqiqotlar uchun material lug‘atlardan olingan LSG a’zolari paradigmatic munosabatlarining tarkibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun, boshqa tomondan, asl matnlardan olingan namunalar bo‘lishi kerak. Bu o‘z navbatida sintagmatik munosabatga kirgan so‘zlarning o‘ziga xosligini, tuzilishi va hosila xususiyatlarini to‘liqroq aniqlash imkonini beradi.

Ma’lumki, termin yasalishi so‘z yasalishiga qiyosan o‘rganiladi. Hozirgi o‘zbek tili so‘z yasalishida sintaktik-leksik va kompozitsion usullar yordamida qo‘shma so‘zlar hosil qilinadi va bu faqat qo‘shma terminlar tabiatiga mos keladi. Lekin terminologiyada birikma terminlar ham mavjud. Termin so‘z sanaladi, biroq uning oddiy so‘zdan farqli tomonlari bor va buning bir qirrasini “so‘z va so‘z birikmasi” hamda “termin va birikma termin” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatda ko‘rishimiz mumkin.

D.Kadirbekovaning fikricha, “termin soha mutaxassislari tomonidan yaratilar va qo‘llanilar ekan, yaratilgan yangi termin tushunchani anglatadi va u neologizm bo‘lib, neotermin deb talqin etiladi”.

Tilshunos N.O‘.Usmonov terminga doir ta’riflardan xulosa tarzida umumlashtirib; ”termin – strukturasi jihatidan turg‘un so‘z yoki so‘z birikmasi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo‘lib, semantikasi jihatidan aniq va barqaror, ma’lum bir tushunchani qat’iy ifodalovchi leksik-semantik birlik” ekanligi qayd etadi.

Terminologiyaning nazariy muammolarini muvaffaqiyatli ishlab chiqish terminlar va terminlar tizimlarini yaratish hamda ishlash qonuniyatlarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan yangi ilmiy terminologiya fanining paydo bo‘lishiga yordam berdi. Bugungi kunga qadar turli tillar, jumladan, o‘zbek va ingliz tillari bilan bog‘liq holda ilmiy-texnik terminlar va terminlar tizimi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar bajarilgan. Biroq bu borada hali o‘rganiladigan masalalar yetarlicha.

References.

1. Ҳабибжонов И.Т. Ўзбек солиқ-божхона терминологияси. Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Кўқон. 2021. – Б. 117.
2. Норходжаева Х. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари. Фил.фан.ном. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 13.
3. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 144 бет.
4. Турсунов У. Ўзбек терминалогияси масалалари – Тошкент, 1933. – 244 бет.
5. Aarts, Calbert Aarts, J.M.G. Metaphor and Non-Metaphor. – Max Niemeyer Verlag, 1979. – 240 p.